

VOLUME II | ISSUE 1 | JANUARY

# Journal of Culture and Art

КУЛТУРА И ИСКУССТВО  
МАДАНИЈАТ ВА САНЃАТ

| 2024

ISSN: 2181-4562



Available online at [www.imfaktor.com](http://www.imfaktor.com)

ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 1-СОҢ

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-1

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-1

ТОШКЕНТ – 2024

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2024-1>

## БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал  
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

## МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол  
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик  
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

## ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим  
Козимович

Ходжаметова Гулчира  
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни  
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор  
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус  
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих  
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов  
Фахриддин  
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари  
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз  
Турабович

Умаров Мамур  
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна  
нутқи” кафедраси доценти

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси  
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани  
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
кафедра мудири, Санъатшунослик фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида  
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати  
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”  
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон  
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта  
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло  
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати  
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-  
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил  
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий  
Оринбаевич

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”  
медали соҳиби, профессор в.в.б

Зиявутдинова Зулфия  
Усеиновна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Раимова Дилфузахон  
Махаммадсолиевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Ботирова Хилола  
Турсунбаевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

*“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.*

*Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.***

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: [www.imfaktor.uz/com](http://www.imfaktor.uz/com)

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти , 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

# МАДАНИЯТ ВА САЊЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

**XAYDAROV Axmad Alimovich***Buxoro davlat universiteti**“San’atshunoslik” fakulteti**“Musiqqa ijrochiligi va madaniyat” kafedrasini o‘qituvchisi,**O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a’zosi, bastakor*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10534227>

## O‘ZBEKISTONDA BOLALAR ESTRADA XONANDALIGI TA’LIMI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

### ANNOTATSIYA

Maqolada “Estrada xonandaligi” ta’limidagi muammolar tahlil etildi. “Estrada xonandaligi” ta’limining uzviyligini ta’minlash, bolalar “Estrada xonandaligi” ni yanada rivojlantirish uchun repertuarlarni yangi qo‘shiqlar bilan boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish haqidagi fikrlar bayon etildi.

**Kalit so‘zlar:** estrada, bolalar qo‘shiqlari, estrada xonandaligi, bolalar musiqa va san’at maktablari, internet tarmoqlari, uzluksiz ta’lim.

## ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ ДЕТСКОГО ЭСТРАДНОГО ПЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

### АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы проблемы в воспитании «эстрадного певца». Обсуждаются мнения о том, как обеспечить целостность образования «эстрадного певца», обогащая репертуар новыми песнями, эффективно используя информационно-коммуникационные технологии для дальнейшего развития детского «эстрадного пения».

**Ключевые слова:** эстрадная музыка, детские песни, эстрадное пение, детские школы музыки и искусства, сети интернет, непрерывное образование.

## PROBLEMS AND SOLUTIONS OF CHILDREN'S VARIETY SINGING EDUCATION IN UZBEKISTAN

### ANNOTATION

The article analyzes the problems in the education of a “pop singer”. Opinions are discussed on how to ensure the integrity of the education of a “pop singer”, enriching the repertoire with new songs, effectively using information and communication technologies for the further development of children’s “pop singing”.

**Key words:** pop music, children's songs, pop singing, children's schools of music and art, internet, continuing education.

Prezidentimiz 2017 yil 3 - avgustda o‘zlarining O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvlaridagi ma‘ruzalarida – *“Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan bir o‘ta muhim masala borki, u ham bo‘lsa, unib o‘sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog‘liqdir. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun haqiqatan ham yo hayot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir va o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydigan, ta‘bir joiz bo‘lsa, masalalarning masalasidir.”* – deb aytib o‘tgandilar. 2023 yilning «*Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim*» yili deb e‘lon qilinganligi san‘at va madaniyat sohasida ta‘limning rivojlanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Nazm va navo insonning his – tuyg‘ularini boyitadi, go‘zallikga, nafosatga, ezgulikga yetaklaydi, hayotni, olamni, tabiatni teranroq anglashga, his qilishga yordam beradi, inson ma‘naviyatini yuksaklarga ko‘taradi.

Bolalik davri – bu kishining insoniy sifatleri, estetik didi, madaniyati shakllanadigan davr. Bolalikdan milliy ruh bilan sug‘orilgan qo‘shiqlar vositasida tarbiyalash bolalarda o‘z millatiga, yurtiga mehr hissini uyg‘otadi va rivojlantiradi. Bolajonlarimizni nazm va navo bilan kichik yoshligidan boshlab oshno qilish ularning tafakkur va hissiyotlarini rivojlantiradi, g‘oyaviy – badiiy tarbiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, yuksak estetik didli va ma‘naviyatli bo‘lib voyaga yetishlariga zamin bo‘ladi.

XIX - XX asrlarda paydo bo‘lgan estrada san‘ati kichik shakldagi sahna asarlari namoyishini anglatadi. “Estrada so‘zi fransuz tilidan olingan bo‘lib, estrade – taxtasupa, konsert ijrochilari uchun qurilgan taxtasupa-sahna ma‘nosini anglatadi. Estrada yoki estrada san‘ati – sahna san‘atining bir turi bo‘lib, turli shakldagi ijrochilarni (cholg‘uchi, ashulachi, badiiy o‘qish, raqs, sirk san‘ati nomerlari va b.) birlashtiruvchi tashkilot” [1].

Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi zamon, musiqa san‘atiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. O‘tgan asrning boshlarida Markaziy Osiyoga kirib kelgan estrada san‘atining, milliy musiqa san‘atimizda ham ildizlari ilgaridan mavjud edi. Hozirgacha sevib kuylanib kelinayotgan milliy xalq va folklor qo‘shiqlarimizning estrada shakllari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Misol qilib «Olmacha anor», «Yallama yorim», «Qilpillama» qo‘shiqlarini keltirishimiz mumkin. Bolalar estrada qo‘shiqlaridan esa «Oq terakmi, ko‘k terak», «Oyijon» qo‘shiqlari misol bo‘la oladi.

1950-60 yillardan boshlab esa O‘zbekiston kompozitorlari ijodidan bolalar estrada qo‘shiqlari ham joy ola boshladi. Birinchilardan bo‘lib M.Ashrafiy, M.Burxonov, Sh.Ramazonovlar bolalar estrada qo‘shiqlari yaratishni boshlagan bo‘lsalar, keyinchalik S.Boboyev, D.Zokirov, I.Akbarov, G‘.Qodirov, K.Abdullayev, S.Abramova, F.Nazarov, M.Nasimovlar bu ishni davom ettirdilar.

O'sha davrlarda, 1950-60 yillarda yaratilgan bolalar estrada qo'shiqlaridan bir nechtasi hozirgacha kuylanib kelinmoqda. M.Burxonovning «Kapalak», K.Abdullayevning «Qo'g'irchog'im», «Maktabim», Sh.Ramazonovning «O'zbekiston gulzor», M.Nasimovning «Bulbulcham» qo'shiqlari shular jumlasidan.

1970 yilda O'zbekiston televideniyesi va radiosi qoshida bolalar «Boychechak» studiyasi, 1982 yilda «Bulbulcha» xori va raqs ansambli tashkil topdi. Bulardan tashqari «G'uncha», «Paxtaoy», ansambllari ham tashkil topib faoliyat yuritdi. «Bulbulcha» ansamblining badiiy rahbari Shermat Yormatov O'zbekiston televideniyesi orqali «Qo'shig'im jon qo'shig'im» ko'rsatuvini tashkil etib, uzoq yillar olib bordilar.

Bolalar estrada qo'shiqchiligining rivojlanishida «San'at bayrami» tanlovlarining ahamiyati katta bo'ldi. «1- Respublika «San'at bayrami» tanlovi 1974 yilda o'tkazildi» [2].

Bu tanlov har yil bir marotaba o'tkazilar edi va shu tanlov orqali qanchadan qancha o'zbek kompozitorlarining bolalar uchun yozilgan qo'shiqlari sahna yuzini ko'rdi, ommalashdi, bolalarning sevimli qo'shiqlariga aylandi. Keyinchalik «Qo'shiq bayrami», «Bolalar qo'shiqlari haftaligi» kabi tadbirlar o'tkazildi. Bolalar qo'shiqlaridan tarkib topgan to'plamlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar katta tirajlarda nashr etildi.

XX asrning ikkinchi yarmidan electron musiqa asboblarining, musiqa sayqallovchi dasturlarning kirib kelishi estrada qo'shiqchiligining yanada rivojlanishi uchun katta zamin yaratdi. Respublikamizda aranjirovkachi – musiqa sayqallovchi ijodkor mutaxassislar shakllandi. Shu bilan birga ovoz yozish studiyalari faoliyati ham rivojlandi, ularning soni ko'paydi.

Mustaqillik yillarida bolalar estrada qo'shiqchiligi yanada rivojlandi. «O'zbekiston qo'shiq bayrami» bolalar qo'shiqlari tanlovlari o'tkazildi va «O'zbekiston - Vatanim manim» qo'shiqlar to'plamlari nashr etildi. «Orom», «Tantana», «Tomosha», «Sevinch» bolalar ansambllari tashkil topdi. Shuningdek «Bulbulcha» bolalar xor va raqs ansambli ham o'z faoliyatini hozirgacha muvoffaqiyat bilan davom ettirmoqda.

So'nggi yillarda bolalar qo'shiqchiligini qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish maqsadida O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi tomonidan ijodiy «Bolalar qo'shiqlari tanlovlari» o'tkazilmoqda. Bolalar uchun estrada qo'shiqlari yaratishda R.Abdullayev, H.Rahimov, N.Norxo'jayev, A.Mansurov, D.Omonullayeva, M.Otajonov, X.Hasanovlar barakali ijod qilmoqdalar. Davr ruhiga mos bolalar uchun yangi, zamonaviy estrada qo'shiqlari yaratilmoqda.

Estrada xonandaligi bo'yicha uzluksiz ta'limni ta'minlashda Bolalar musiqa va san'at maktablarining ahamiyati katta. Quyi bo'g'inda, ya'ni musiqa ta'limida boshlang'ich pog'ona bo'lgan Bolalar musiqa va san'at maktablarida xonandaning musiqiy qobiliyati rivojlantiriladi, ovozi shakllanadi va yo'lga qo'yiladi.

O'tgan asrning oxirlarida Bolalar musiqa va san'at maktablarida «Estrada xonandaligi» va «Estrada cholg'u ijrochiligi» mutaxassisliklari faoliyati yo'lga qo'yildi. 2019 yilda BMSM lar «Estrada xonandaligi» mutaxassisligi bo'yicha yangi o'quv dastur tuzilib hozirgacha shu dastur bo'yicha ish yuritilmoqda. S.S.Adilova va D.D.Zoitovalar tomonidan tuzilgan ushbu o'quv dasturidagi - «O'quvchilarning mazkur fanni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbir etish muhim ahamiyatga egadir.

Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar, elektron materiallar, sintezatorlar hamda musiqiy kompyuter dasturlaridan foydalaniladi.» [3] – degan ko'rsatmalar hozirda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki butun dunyoda, jumladan Respublikamizda ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal sur'atda rivojlanib bormoqda. Aksariyat BMSM larda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning internet tarmoqlaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Ko'pgina davr bilan hamnafas ish yuritayotgan o'qituvchilar ulardan faol foydalanib kelmoqdalar.

Internet tarmoqlarida notasi, MP3 formatdagi musiqasi (minus) va ijrosi (plyus) joylashtirilgan qo‘shiqlardan foydalanish o‘qituvchilar uchun ham, o‘quvchilar uchun ham qulay bo‘lmoqda. Hozirgi kunda karaoke qilinib internet tarmoqlariga joylashtirilgan bolalar estrada qo‘shiqlari anchagina, lekin bu yetarli emas.

Har bir bolalar kompozitorining yoki BMSM lar o‘quv rejasi boyicha, har bir sinf uchun alohida-alohida, foydalanish uchun qulay tarzda qo‘shiqlar jamlanmalarini internet tarmoqlariga joylashtirish hozirgi davrning muhim vazifasi bo‘layapti. Zamon bilan hamnafas ish yuritish uchun, bolalar estrada xonandachiligini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarish uchun bu ish albatta amalga oshirilishi kerak. BMSM larning “Estrada xonandaligi” bo‘yicha o‘quv dasturlarini yangilansa, o‘quv dasturlariga kompozitor va bastakorlarimizning yangi yaratilgan qo‘shiqlari kiritilsa hamda o‘quv dasturlaridagi barcha qo‘shiqlar ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

“Estrada xonandaligi” mutaxassisligi bo‘yicha tuziladigan yangi o‘quv dasturiga “Uchunchi renessans”, “Yangi O‘zbekiston” kabi dolzarb mavzu, g‘oyalarni tarannum etuvchi, hozirgi davrga mos ritm va ohanglar bilan yaratilgan qo‘shiqlarni kiritish zarur. Shiddat bilan rivojlanayotgan davrimizda Kompozitorlar va bastakorlarimiz tomonidan bugungi kunlarda yaratilayotgan bolalar uchun estrada qo‘shiqlarini o‘quv dasturiga kiritish shu mutaxassislik bo‘yicha ta‘lim samaradorligini oshiradi, davr bilan hamnafas qadam tashlash uchun zamin yaratadi, yosh avlodni g‘oyaviy jihatdan chiniqtiradi.

2022 yilda men tomonimdan yozilgan, o‘zim ijod qilgan qo‘shiqlardan tashkil topgan “Kuylaymiz” nomli BMSM lar “Estrada xonandaligi” mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv qo‘llanma xuddi shunday tartibda, xuddi shunday g‘oyaviy-badiiy mazmundagi qo‘shiqlar jamlanmasi bilan tuzilgan. Ya‘ni, qo‘shiqlarda “Uchunchi renessans”, “Yangi O‘zbekiston” g‘oyalari tarannum etilgan, qo‘shiqlarning notasidan tashqari QR kod orqali ularning YouTube’ga joylashtirilgan minus va plyus karaokelaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Telegram kanalimda esa qo‘shiqlarning minus va plyuslari MP3 formatida joylashtirilgan [4].

Qo‘llanmaning yana bir qulayligi shundan iborat-ki, undagi qo‘shiqlarni o‘rgatish jarayonini ikki uslubda olib borish imkoniyati bor: 1-uslubda o‘qituvchi qo‘shiqni notasi bilan o‘zi chalib o‘rgatadi, 2-uslubda esa o‘qituvchi musiqasini (minusini) texnik vosita orqali o‘quvchiga eshittirib qo‘shiqni ijro ettiradi.

Qo‘shiqlarni QR kod orqali musiqasi (minus) va ijrosi (plyus) ni MP3 formatida tinglash hamda karaoke yordamida o‘rganish jarayonida o‘qituvchi cholg‘u chalishdan, notaga qarashdan bo‘sh bo‘ladi va o‘quvchilarning kuylashini kuzatishga, boshqarishga ko‘proq e‘tibor berishiga imkoniyat yaratiladi.

Yangi O‘zbekiston g‘oyasini o‘zida mujassam etgan, yangi ohanglar bilan sug‘orilgan bolalar estrada qo‘shiqlarini maktab o‘quv repertuariga kiritish, yangi qo‘shiqlar to‘plamlarini nashr etib maktablarga yetkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu BMSM larda “Estrada xonandaligi” repertuarini boyitish bilan birga ta‘lim sifatini yaxshilashga ham zamin bo‘ladi. Quyi bo‘g‘inda, Bolalar musiqa va san‘at maktabida sifatli ta‘lim olgan xonanda keyinchalik yaxshi mutaxassis bo‘lib yetishadi.

**IQTIBOSLAR. CHOСКИ. REFERENCES.**

1. И.А.Акбаров “Музыка луғати”. ТОШКЕНТ. Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987 й.
2. “История вокального и хорового исполнительства в Узбекистане” Ташкент Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма.
3. С.С.Адилова, Д.Д.Зоитова “Эстрада хонандалиги” Болалар музыка ва санъат мактаблари учун Ўқув дастури Тошкент-2019.
4. “Ўзбекистон – Ватаним маним” (Қўшиқлар тўплами): - Тошкент. “Меҳнат” нашриёти, 1997 й.